Государственное регулирование инвестиционной деятельности: проблемы и направления совершенствования.....	1152
Шухрат Турсунов, Икромов Хасан Зафарович	
Economic incentives and barriers to sustainable transition in agribusiness: a comparative study of organic and conventional farming systems	1157
Mubina Toirova	
Цифровая трансформация банковской системы узбекистана: анализ внедрения fintech-решений в государственных банках	1162
Абдурахимова Дилора Каримовна	
Ta'lim muassasalaridagi ba'zi jihatlar	1167
A'zam Qutbiddin A'zam-zoda	
Klasterlar hisob siyosatida boshqaruv hisobining metodologik asoslari.....	1173
Toshpo'latov Azizbek Shermuxamadovich	
Egri soliqlarning mohiyati, genezisi va rivojlanish tendensiyalariga oid nazariy munozaralar xususida	1179
Shodiyev Olimjon Abduraxmonovich	
Ekologik mehmonhona faoliyatini rejalashtirish maqsadlari va vazifalari	1186
Abidova Dilfuza Igamberdievna	
Investitsiya loyihalarining iqtisodiy va moliyaviy samaradorligini oshirish istiqbollari.....	1200
Jo'rabekova Xumora Muzaffar qizi, Saidov Rasul Boltabayevich	
O'zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlarini moliyalashtirish manbalarining tahlili.....	1204
Aliyev Arslon Salom o'g'li	
O'zbekistonda turizm sohasining iqtisodiy ko'rsatkichlarini statistik tahlil qilish.....	1213
Jumanova Zilola Tuychiyevna	
Xorijiy davlatlarda boylik solig'i va uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati.....	1219
Ruziyev G'anisher Usarovich	
Yer fondi va undan samarali foydalanishning nazariy asoslari (Samarqand viloyati misolida).....	1225
Xoshimova Sevara Baxromovna	
Iqtisodiy-ekologik tizimlarni boshqarishga ta'sir etuvchi omillarning ilmiy asoslari	1229
Kuldoshev Asliddin Tursunovich	
Влияние финтех-услуг на финансовую инклюзию в сельских регионах узбекистана	1236
Абдурахимова Дилора Каримовна	
Surxondaryo viloyati sanoat sohasining asosiy ko'rsatkichlari tahlili.....	1240
Kuvanchiyeva Mehriniso Davlyatgeldi qizi	
A critical evaluation of strategic management's role in promoting sustainable development in Uzbekistan	1245
Ismatova Mahliyo	



O'zbekistonda turizm xizmatlari eksportini oshirishda zamonaviy infratuzilma va texnologiyalarning integratsiyasi.....	1251
Akmal Bakhromov	
Trends and reforms of corporate governance in state-owned enterprises.....	1257
F.Djalilov	
Переоценка долгосрочных активов в нефтегазовой промышленности и определение финансового результата от переоценки.....	1269
Махкамова Саида Гайратова	
Oziq-ovqat mahsulotlari korxonalarini integratsiyalashuv jarayonlarini boshqarish samaradorligini oshirish.....	1275
Xojiev Ibroxim Ikramovich	
Sug'urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligini ta'minlashning muhim shartlari.....	1280
Allanazarova B.K.	
P2P lending and crowdfunding as alternative sources of financing for small business in Uzbekistan.....	1286
Abdurakhimova Dilara Karimovna	
O'zbekistonda soliq nazoratining huquqiy va tashkiliy asoslarini takomillashtirish yo'llari.....	1290
Kuziyeva Nargiza Ramazanovna, Oymatova Gulnur Mirjamolovna	
Applications of hyperbolic geometry in physics and biology.....	1295
Khaknazarova Khurshidabonu Kenjaevna, Otakulova Rukhshona Akram kizi	
O'zbekiston temir yo'llari tizimining transformatsiyasi: modernizatsiya, raqamlashtirish va qayta tuzilish yo'nalishlari.....	1301
Nasrullayev Nurbek Baxtiyarovich	
The role of tourist product diversification in sustainable tourism development.....	1305
Raxmonov Shuxrat Shavkatovich, Alimova Mashhura Toirxonovna	
Temiryo'l transporti turi tavsifi.....	1310
Shodmonbekova Nodira Kamoljon qizi	
Kiberxavfsizlik: it infratuzilmasini himoya qilishning zamonaviy usullari.....	1321
D. Sh. Usmanbayev	
Mahalliy budjetlar daromad bazasini tahlili.....	1325
Qurbonov Nuriddin Ro'ziqulovich	
Развитие цифровых финансовых услуги в банковской системе Республики Узбекистан.....	1333
Абдурахманова Матлуба Махамдаминовна	
Avariya rejimlarida kichik yuklamali elektr ta'minoti tizimlarining kabel izolyatsiyasi monitoringini avtomatlashtirishning zamonaviy yondashuvlari.....	1339
Mirzoyev Narzulla Nuriddinovich, Mamatqulov Toyir Chorshanbiyevich	
Analysis of increasing the speed of information exchange between the control interface and execution mechanisms in emergency mode in intelligent systems.....	1346
Azizbek Yusupbekov Nodirbekovich, Husniddin Esonov Mamarasul o'g'lu Assistant	
Sa'noat korxonalari va mexatron robotlarni optimal avtomatlashtirish va boshqarishda sun'iy intellektning ahamiyati.....	1351
Karabayev Ibragim Turdiyevich, Esonov Husniddin Mamarasul o'g'li, Abdullayeva Saodat Mengbayevna, Mamatqulov Toir Chorshanbiyevich	
Korxonaning moliyaviy holatini baholashda zamonaviy tahlil uslublarining qo'llanilishi.....	1355
Usmanova Nasiba Akbarjonovna, Suleymanova Asel Armanovna	
Xizmat ko'satish sohasida xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar va raqamli texnologiyalarning ahamiyati.....	1360
Mirzayeva Shirin Nodirovna	
Rekreatsiya turizmi va sog'lomlashtirish xizmatlari integratsiyasi.....	1365
Shaymanova Nigora Yusupovna	
Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlantirishda ba'zi iqtisodiy yondashuvlarning nazariy jihatlarini.....	1369
Iskandarova D.B.	
Yashil (eko) investitsiyalarni tijorat banklari orqali moliyalashtirish.....	1373
Kamilova Iroda Xusniddinovna	
Improvement of inventory accounting audit based on international standards.....	1378
Ovlayev Suhrob Temur o'g'li, Yo'ichiyev Oybek Ulug'bek o'g'li, Normo'minova Dilorom Umar qizi, Avlayeva Oybarchin Olim qizi	



Artificial intelligence systems for assessing creditworthiness	1382
Mardonova Durdona Yaxshiboy qizi	
B2B bozorini rivojlantirishda raqamli marketing texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish	1387
Samadov Askarjon Nishonovich	
Tech-driven growth and the economy of the future: brics-t in the society 5.0 paradigm	1395
Kaldibayev Nurlan Alimjanovich, Sagdullayeva Gulnora Botirovna, Durmanov, Akmal Shaimardanovich	
O'zbekistonda tabiiy resuslardan olinadigan rentaning yaimdagi ulushiga tanlab olingan o'zgaruvchilar ta'siri tahlili	1404
Tursunov Husnidin, Ibragimov Hasan	
O'zbekistonda fond bozorini tartibga solish	1412
Sultonov Sherali Nuraliyevich	
Public perception of the feasibility of introducing islamic banking in Uzbekistan: a consumer perspective	1418
Dr. Shamirova Surayo Kabildjanovna	
Directions for implementing the innovative digital technologies in tourism	1425
Norchaev Asatullo Norbutaevich	
Возможности совершенствования практики финансирования инвестиционных проектов	1430
Шомуродов Равшан Турсункулович, Хакимов Хафизбек Хамза угли	
O'zbekistonda pochta aloqasi xizmatlarini ko'rsatishning transport-logistika jarayonini mintaqaviy darajada rivojlantirish yo'llarini ishlab chiqish	1436
Palvanbayev Umidbek O'ktam o'g'li	
Aksiyalar qiymatini baholashning nazariy asoslari	1440
Botirxo'ja Aziza Faxmuddin qizi	
Yashil iqtisodiyotni moliyalashtirishning rivojlanayotgan davlatlar amaliyoti tahlili	1444
Raimjanova Madina Asrarovna, Zokirova Feruza Farxod qizi	
Yashil loyihalarni davlat xususiy sheriklik asosida moliyalashtirish	1449
Zokirova Feruza Farxod qizi	
Факторы и риски, влияющие на оценку стоимости акции	1453
Батирхужа Азиза Фахмуддин кизи	
Финансовые риски в эпоху цифровой экономики: новые вызовы и способы управления	1458
Нуруллина Камила Рустамовна	
Tijorat banklarining yangi bank xizmatlarini iqtisodiy samaradorligi	1463
Rahmatov Temur Sotiboldiyevich	
Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida ekologik innovatsiyalarning roli va amalga oshiruv mexanizmlari	1472
Ulichkina Lyudmila Ivanovna	
Эволюция профессиональных стандартов в республике узбекистан: от формирования к внедрению в сфере туризма	1478
Гольшева Елена Вячеславовна, Ивонина Наталья Викторовна	
Aligning uzbekistan's education reform with global best practices: the university of missouri as a model for systemic transformation	1485
Azamat Sulaymonov, Laylo Yakhshiboyeva	
O'zbekiston tijorat banklarining investision faolligini ta'minlash masalalari	1489
Axmedov Shoymurod Azamat o'g'li	
Kichik biznes subyektlarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash masalasi	1493
Q.O.Tursunboyev	
Adoption of green economy mechanisms in the process of diversification of construction enterprises	1500
Yembergenova Aynur Aidosbayevna	
Nomoddiy aktivlar hisobini yuritish va audit jarayonlarini takomillashtirish yo'llari	1506
Rozmatova Umida Yuldashevna	
Raqamli moliya va uni sohaga joriy etish: innovatsion salohiyat	1512
Babadjanov Abdirashid Musayevich	
Влияние корпоративной культуры на инвестиционную стратегию промышленных предприятий	1527
Едгоров Сардорбек Самадович	



Jismoniy shaxslar kreditlarining bank portfeli sifatiga ta'siri: tahliliy yondashuv.....	1533
Sabirova Lobar Baxromovna	
Xo'jaligini soliqaq tortish mexanizmini samaradorligini oshirish istiqbollari.....	1539
Salimov Sherzod Baxtiyorovich	
Methods of improving customs management in transforming the customs bodies into a corruption-free field.....	1544
Mirzaxmedova Dilafuz Farxatovna, Tukhtabaev Jamshid Sharafetdinovich	
Особенности цифровизации налоговой системы в узбекистане.....	1548
Юсупов Одил Омонович	
Qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda texnologik yangiliklarni joriy etish: muammolar va imkoniyatlar.....	1554
Ismailov Akmal axsudovich, G'ulomov Ilhom Akramovich	
Kichik biznes subyektlarini kreditlashda raqamli bank xizmatlaridan foydalanishning afzalliklari.....	1560
Madjitova Maftuna Kamiljon qizi	
Tadbirkorlikda tavakkalchilikni boshqarishning nazariy asoslari.....	1564
Ziyatova Sitora Baxtiyorovna	
Importance of media activity in negotiations.....	1569
Fariza Xoldarova	
Kredit portfeli risklarini diversifikatsiya qilish strategiyalari.....	1575
Hamroyev Sherzod Axtamovich	
Marketing strategiyasi tushunchasi va uning turizm sohasidagi ahamiyati.....	1580
Komilov Dostonbek Ro'zimboy o'g'li	
Banklarining faoliyatini tartibga solish yo'llari.....	1586
Umirzoqova Aziza Olim qizi	
Yashil iqtisodiyot sari: kanada tajribasi asosida o'zbekiston uchun istiqbollar.....	1590
Muratbaeva Eleonora Muxamedjan qizi, Norboyev Odil Abrayevich	
Aholi hayotiylik sifatining statistik tahlili.....	1595
Ostonaqulov Dilshod Ismatilla o'g'li	
Davlat moliyasini isloh qilish sharoitida budjet jarayonini takomillashtirish.....	1602
Sholdarov Dilshod Azimiddin o'g'li, Shamsitdinova Xonzoda Mardonbek qizi	
Recent trends in the global stock market: a macro-level analysis with emphasis on asia and central asia (2023–2025).....	1612
Mamataliev Bobur Saidnazar ugli	
Barqaror rivojlanishni ta'minlashda "yashil iqtisodiyot"ning o'rni.....	1617
Murodov Sardor Nurali o'g'li, Toxirov Shodiyor Zafar o'g'li	
Aholi daromadlari va ta'lim darajalarini turmush darajasiga ta'sirini baholash.....	1623
Xusinov I.I.	
Soliqlarni yig'iluvchanligini oshirish istiqbollari.....	1630
To'xsanov Qudratillo Nozimovich	
Qoraqalpog'iston respublikasida xizmat ko'rsatishni rivojlantirish muammolari.....	1635
Mirzayev Qulmamat Jonuzoqovich, Tleymuratov Bahadir Genjemuratovich	
Forecasting and mitigating risks in international projects based on financial management principles.....	1641
Oripova Saodat Mirfotikh kizi	
Uglerod chiqindilarini buhgaletariya hisobiga integratsiya qilish: o'zbekiston iqtisodiyotida barqaror rivojlanish vositasi sifatida.....	1646
Halilov Sherzod Akhmatovich	
Contribution margin, dol, and break-even analysis: a financial performance comparison of amazon and walmart (2020–2024).....	1657
Kodir Gulomov	
Yashil iqtisodiyot: mohiyati, tushunchasi va rivojlanish tamoyillari.....	1664
Ataniyazova Maksuda Baltabayevna	
Beqarorlik sharoitida korxonalar ishlab chiqarish potensialidan foydalanishning optimallashtirish.....	1669
Jalilov Bahrom Sotiboldievich	
Innovatsion infratuzilmani rivojlantirish orqali xizmat sektorining raqobatbardoshligini hamda ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirish.....	1674
Musinov Dilshod Sultanovich	



Davlat tibbiyot tashkilotlarida tovar – moddiy zaxiralar harakatini hujjatlashtirish..... 1680
Kuliboyev Azamat Shonazarovich



DAVLAT TIBBIYOT TASHKILOTLARIDA TOVAR - MODDIY ZAXIRALAR HARAKATINI HUJJATLASHTIRISH

Kuliboyev Azamat Shonazarovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori, PhD.

e-mail: a.kuliboyev@tseu.uz, ORCID: 0000-0002-3357-070X

Annotatsiya: Maqolada davlat tibbiyot tashkilotlarida tovar-moddiy zaxiralar harakatini hujjatlashtirishga oid asosiy masalalar ko'rib chiqilgan, boshlang'ich hisob hujjatlari ro'yxati va buxgalteriya hisobi registrlari aniqlangan. Davlat tibbiyot tashkilotlarida tovar-moddiy zaxiralar harakatini hujjatlashtirishning uslubiy jihatlari yoritilgan. Tovar-moddiy zaxiralar harakatini hujjatlashtirishning amaliy jihatlari huquqiy hujjatlarga asoslangan holda ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich hisob hujjatlari, buxgalteriya hisobi, buxgalteriya hisobi registrlari, budget, davlat tibbiyot tashkiloti, inventarizatsiya, tovar-moddiy zaxiralar, hujjatlashtirish.

Аннотация: В статье рассмотрены основные вопросы документального оформления движения товарно-материальных запасов в государственных медицинских организациях, определены перечень первичных учетных документов и регистры бухгалтерского учета. Выявлены методические аспекты оформления движения товарно-материальных запасов. Практические аспекты документального оформления рассмотрены на основании правоустанавливающих документов.

Ключевые слова: первичные учетные документы, бухгалтерский учет, регистры бухгалтерского учета, бюджет, государственная медицинская организация, инвентаризация, товарно-материальные запасы, документация.

Abstract: The article examines the main issues of documenting the movement of commodity-material stocks in state medical organizations. It defines the list of primary accounting documents and accounting registers. The methodological aspects of recording the movement of commodity-material stocks are described. The practical aspects of documentation are considered based on legal and regulatory documents.

Key words: primary accounting documents, accounting, accounting registers, budget, state medical organization, inventory, commodity-material stocks, documentation.

KIRISH

Tovar-moddiy zaxiralar davlat tibbiyot tashkilotlari faoliyatini ta'minlashning muhim omili bo'lib, real ehtiyojni aniqlash uchun ularning mavjudligi va harakati to'g'risida tezkor, to'liq ma'lumot berishni taqozo qiladi. Buxgalteriya hisobi tashkilotning iqtisodiy faoliyatiga oid barcha xo'jalik jarayonlarini hujjatlashtirishni o'z ichiga olganligi sababli, tovar-moddiy zaxiralar kabi aktivlarni hujjatlashtirish masalalari juda dolzarb hisoblanadi.

Davlat tibbiyot tashkilotlarida tovar-moddiy zaxiralarga oid amalga oshirilgan har bir xo'jalik muomalasi hujjatlashtiriladi. Bunga, jumladan, tibbiyot tashkilotlarida tovar-moddiy zaxiralarning kirimi va chiqimi, bir joydan ikkinchi joyga o'tkazilishi, moddiy javobgar shaxslarning almashtirilishi kabi holatlar misol bo'la oladi.



Davlat tibbiyot tashkilotlarida tovar-moddiy zaxiralar harakatini hujjatlashtirishdan asosiy maqsad — tashkilotda bu zaxiralar ustidan ichki nazoratni ta'minlash hamda ularning moliyaviy hisobot shakllarida to'g'ri aks ettirilishiga erishishdan iboratdir [9, 82–86].

Buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot ma'lumotlarining to'g'riligi hamda ishonchligi aktivlar va majburiyatlarni majburiy ravishda inventarizatsiyadan o'tkazish orqali tasdiqlanadi. Shu bois, davlat tibbiyot tashkilotlarida ham tovar-moddiy zaxiralar harakati to'liq hujjatlashtirilishi talab etiladi. Chunki inventarizatsiya jarayonida nafaqat zaxiralarning o'zi, balki ularning hujjatlari ham to'liq tekshiriladi.

Shu sababli budjet tashkilotlarida buxgalteriya xizmati xodimlari va moddiy javobgar shaxslar tomonidan tovar-moddiy zaxiralar harakati huquqiy hamda uslubiy jihatdan to'g'ri va to'liq shakldagi hisob hujjatlarida aks ettirib borilishi lozim. Bu holat tanlangan tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilab beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tadqiq qilinayotgan mavzu doirasida mamlakatimiz va xorijlik iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlari o'rganildi. Shuningdek, olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarning amaliy jihatlarini tahlil qilindi.

Xorijlik iqtisodchi olimlardan I.P. Vorobeva, A.L. Spesivtseva va G.A. Barysheva asarlarida “moddiy zaxiralar — bu davlat muassasasining o'z ustaviga muvofiq ijtimoiy, boshqaruv va boshqa funksiyalarini bajarish uchun zarur bo'lgan nomoliyaviy aktivlarining bir qismidir”, deya ta'rif berilgan. Olimlar tomonidan tovar-moddiy zaxiralar tasniflanib, budjet tashkilotlarida hisob siyosatining eng muhim vazifasi — ularning saqlanishi va maqsadli ishlatilishini ta'minlashdan iborat ekani ilmiy-uslubiy jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, buxgalteriya hujjatlari va registrlar jadval shaklida keltirilgan [4, 42–48].

Moddiy zaxiralarni tan olish tartibi, ularni tasniflash, baholash metodologiyasi va harakati bo'yicha xo'jalik muomalalarini hujjatlashtirish O.Ye. Kachkova, T.I. Krishtaleva va M.F. Ovsyichuklarning ilmiy tadqiqotlarida yoritilgan.

Budjet tashkilotlarida moddiy zaxiralarni qabul qilish va hisobdan chiqarish usullari, tarkibi, guruhlari va hisob turlari bo'yicha tasnifi, ularning haqiqiy tannarxini aniqlash usullari ham olimlar tomonidan batafsil yoritib berilgan [5, 128–134].

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan M. Ostonaqulov budjet tashkilotlarida material zaxiralari hisobining ilmiy-amaliy jihatlarini o'rgangan. U o'z tadqiqotida material zaxiralari tarkibi, ularning buxgalteriya subschotlarida aks ettirilishi, analitik va sintetik hisob yuritilishi hamda hujjatlashtirilishini bayon etgan [10, 139–145].

Budjet tashkilotlarida tovar-moddiy zaxiralar hisobini tashkil etish, uning maqsadi va xususiyatlari, kirimni hisobga olish va baholash, hisobdan chiqarish, analitik va sintetik hisob yuritish, shuningdek, hisob yuritishda axborot tizimlaridan foydalanish masalalari A.J. Tuychiev, A.A. Ostonaqulov, K.Sh. Ibragimov va A.S. Tursunovlarning ilmiy ishlari asosida tahlil etilgan. Tovar-moddiy zaxiralar bo'yicha belgilangan me'yorlarni aniqlashda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar ham olimlar tomonidan amaliy misollar orqali asoslab berilgan [11, 196–218].

Yuqorida nomlari keltirilgan iqtisodchi olimlarning tadqiqotlari tahlil qilinganda, ularning asarlarida asosan budjet tashkilotlarida tovar-moddiy zaxiralar hisobi keng yoritilgan bo'lib, qisman buxgalteriya hujjatlarining qo'llanilishiga ham to'xtalib o'tilgan. Biroq davlat tibbiyot tashkilotlarida tovar-moddiy zaxiralar harakatini hujjatlashtirish masalalari bo'yicha alohida tadqiqotlar olib borilmagan. Shu bois, mazkur mavzu doirasida ilmiy izlanishlar olib borish zarur, deb hisoblaymiz.


TADQIQOT METODOLOGIYASI

Davlat tibbiyot tashkilotlarida tovar-moddiy zaxiralar harakatini hujjatlashtirishning uslubiy jihatlarini takomillashtirishda budjet hisobi qoidalarini hisobga olgan holda tizimli tahlil, analiz, sintez, taqqoslash va boshqa tegishli ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tovar-moddiy zaxiralarga xizmat qilish muddati bir yildan ortiq bo'lmagan yoki bir operatsion sikl mobaynida foydalaniladigan mol-mulk kiradi. Ushbu zaxiralar tarkibiga davlat tibbiyot tashkilotlari tomonidan sotib olingan yoki qayta sotish uchun mo'ljallangan tovarlar va boshqa turdagi moddiy boyliklar kiritiladi.

Davlat tibbiyot tashkilotlarida tovar-moddiy zaxiralar quyidagi turlarga bo'linadi (1-rasm).



1-rasm. Davlat tibbiyot tashkilotlarida tovar-moddiy zaxiralar turlari

Yuqoridagi rasmda tovar-moddiy zaxiralarning turlari aks ettirilgan bo'lib, har bir tovar-moddiy zaxira buxgalteriya hisobida boshlang'ich hisob hujjatlariga asosan hisobga olinadi.

Davlat tibbiyot tashkilotlarida tovar-moddiy zaxiralarning kirimi, joydan joyga ko'chirilishi, moddiy javobgar shaxslar almashishi va hisobdan chiqarilishi to'liq ravishda boshlang'ich hisob hujjatlari asosida rasmiylashtiriladi. Bu holatni budjet tashkilotlarida tovar-moddiy zaxiralar harakati turlari bo'yicha hujjatlashtirish jarayonida ham kuzatishimiz mumkin (1-jadval).

1-jadval. Tovar-moddiy zaxiralar harakati turlarini hisobga olish uchun boshlang'ich hisob hujjatlari

Hujjat nomi	Tovar-moddiy zaxiralar turlari	Kim rasmiylashtiradi	Izohlar
Tovar-moddiy zaxiralarni qabul qilish			
Yuk xati		Mol yetkazib beruvchilar	O'z ichiga: tovar-transport yuk xati va transport yuk xatini oladi
Schyot-faktura			Yuk xati – schyot-faktura ham kiradi
Dalolatnoma	Barcha turdagi tovar-moddiy zaxiralar	Moddiy javobgar shaxs va mol yetkazib beruvchining vakili (tashkilot tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida)	Dalolatnomalar quyidagi holatlarda tuziladi: hujjatlarning haqiqiy mavjudligi va ma'lumotlari o'rtasidagi nomuvofiqlik holatlarida, asosiy vositalarni tugatishda, tovar-moddiy zaxiralarning sifatini tekshirib qabul qilish paytida
Talabnoma-yuk xati (Yuk xati (Talabnoma))	Tovar-moddiy zaxiralar — ularni sotib olish, ishlab chiqarish, tayyor mahsulotlar davomida shakllangan haqiqiy tannarx bo'yicha hisobga olinadi.	Moddiy qiymatliklarni topshiruvchi bo'linmaning moddiy javobgar shaxsi	Hujjatning shakli va uning qo'llanilishi "Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Yo'riqnoma (2010-yil 22-dekabr, 2169-son) bilan tasdiqlangan
Buxgalteriya ma'lumotnomasi	Barcha turdagi tovar-moddiy zaxiralar	Buxgalteriya	Hujjatning shakli va uning qo'llanilishi "Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Yo'riqnoma (2010-yil 22-dekabr, 2169-son) bilan tasdiqlangan.



Tovar-moddiy zaxiralarni joydan–joyga ko‘chirish (yoki moddiy javobgar shaxslar almashishi)			
Yuk xati (Talabnoma)	Barcha tovar-moddiy zaxiralar	Moddiy qiymatliklarni yetkazib beruvchi bo‘linmaning moddiy javobgar shaxsi. Buxgalteriya	Hujjatlarning shakli va uning qo‘llanilishi “Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Yo‘riqnoma (2010-yil 22-dekabr, 2169-son) bilan tasdiqlangan.
Oziq-ovqat mahsulotlarini berish uchun Menu-Talabnoma	Oziq-ovqat mahsulotlari.		
Berilgan ozuqa va yem-xashak qaydnomasi	Chorvachilik va boshqa hayvonlarni boqish uchun ozuqa va yem-xashak.		
Tashkilot ehtiyoji uchun berilgan materiallar qaydnomasi	Barcha turdagi tovar-moddiy zaxiralar.		
Zabor kartasi	Barcha turdagi tovar-moddiy zaxiralar.		
Dalolatnoma	Barcha turdagi tovar-moddiy zaxiralar.	Tashkilotda faoliyat yurituvchi doimiy inventarizatsiya komissiyasi.	Dalolatnoma tashkilotdagi moddiy javobgar shaxslar o‘zgartirish tuziladi.
Tovar-moddiy zaxiralarini hisobdan chiqarilishi			
Oziq-ovqat mahsulotlarini berish uchun Menu-Talabnoma	Oziq-ovqat mahsulotlari	Moddiy qiymatliklarni yetkazib beruvchi bo‘linmaning moddiy javobgar shaxsi, Buxgalteriya	Hujjatning shakli va uning qo‘llanilishi “Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Yo‘riqnoma (2010-yil 22-dekabr, 2169-son) bilan tasdiqlangan.
Berilgan ozuqa va yem-xashak qaydnomasi	Chorvachilik va boshqa hayvonlarni boqish uchun ozuqa va yem-xashak		
Tashkilot ehtiyoji uchun berilgan materiallar qaydnomasi	Barcha tovar-moddiy zaxiralar		
Yuk xati (Talabnoma)	Barcha tovar-moddiy zaxiralar		
Yo‘l varaqasi	Yonilg‘i, yoqilg‘i–moylash materiallari		
Dalolatnoma	Barcha tovar-moddiy zaxiralar	Tashkilotda faoliyat yurituvchi doimiy inventarizatsiya komissiyasi	Tovar-moddiy zaxiralar quyidagi holatlar natijasida hisobdan chiqariladi: tashkilot ehtiyoji uchun sarflanganda; yaroqsiz holatga kelganda; kamomad aniqlanganda; tabiiy ofatlar natijasida yo‘qotishlar aniqlanganda.

Yuqoridagi jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, davlat tibbiyot tashkilotlarida tovar–moddiy zaxiralari harakati turlarini hisobga oluvchi har bir boshlang‘ich hisob hujjati, albatta, moddiy javobgar shaxslar yoki buxgalteriya xizmati xodimlari tomonidan amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar asosida rasmiylashtiriladi [8].

Agar davlat tibbiyot tashkiloti tomonidan boshlang‘ich hisob hujjatlarining shakllari mustaqil ravishda ishlab chiqilgan bo‘lsa, ularning ro‘yxati davlat tibbiyot tashkilotining hisob siyosati yoki rahbarning buyrug‘i bilan tasdiqlanishi lozim. Bu esa, standart shakllar taqdim etilmagan xo‘jalik jarayonlarini hisobga olish uchun maqbul yechim hisoblanadi.

Tovar–moddiy zaxiralarning analitik hisobi buxgalteriya hisobi registrlarida, davlat tibbiyot tashkiloti buxgalteriyasida va moddiy javobgar shaxslarda boshlang‘ich hisob hujjatlari asosida amalga oshiriladi (2–jadval).

Bunda tayyor mahsulotlar va sotish uchun berilgan tovarlarning analitik hisobi alohida yuritiladi [6].



2-jadval. Tovar–moddiy zaxiralarni hisobga olish uchun analitik hisob registrleri

Registr nomi	Tovar – moddiy zaxiralar turi	Eslatma
Tashkilotning buxgalteriya hisobini tashkil qiladi va yuritadi		
Moddiy qiymatliklarning miqdor-qiymat hisobi DAFTARI (KARTOCHKASI) (296-son shakl)	Barcha turdagi tovar – moddiy zaxiralar	Yozuvlar mol yetkazib beruvchilarning schyot-fakturalari, yuk xatlari va boshqa hujjatlariga asoslanadi
Oziq-ovqat mahsulotlarining kirimi bo'yicha JAMLANMA QAYDNOMA (300-son shakl)	Oziq-ovqat mahsulotlari	Yozuvlar boshlang'ich hisob hujjatlariga asoslanadi
Oziq-ovqat mahsulotlari sarfi bo'yicha JAMLANMA QAYDNOMA (399-son shakl)		Yozuvlar oziq-ovqat mahsulotlarini berish uchun Menyu-Talabnomaga asoslanadi
Material zaxiralari bo'yicha AYLANMA QAYDNOMA (M-44-son shakl)	Barcha turdagi tovar – moddiy zaxiralar	Yozuvlar mol yetkazib beruvchilarning schyot-fakturalari, yuk xatlari va boshqa hujjatlariga asoslanadi
Chorva mollarini hisobga olish daftari (395-son shakl)	Yosh chorva va bo'rdog'iga boqilayotgan mollar	Hisob chorva mollarining turi va yosh guruhi haqida ma'lumot beradi
Moddiy javobgar shaxslar tomonidan shakllantiriladi va boshqariladi		
Materiialarning ombor hisobi DAFTARI (M-17-son shakl)	Barcha turdagi tovar – moddiy zaxiralar	Omborlardagi tovar-moddiy zaxiralar hisobi moddiy javobgar shaxs tomonidan materiiallarni ombor hisobi daftarida faqat nomi, navi va miqdori bo'yicha yuritiladi
Markazlashtirilgan ta'minot bo'yicha to'langan moddiy qiymatliklar DAFTARI (322-son shakl)		Har bir mol-mulkni qabul qilib oluvchi budjet tashkilotlari bo'yicha yuritiladi
Singan idishlarni ro'yxatga olish bo'yicha KITOB (325-son shakl)	Singan idishlar	Kitobga yozuvlar tegishli mansabdor shaxslar tomonidan yoziladi. Doimiy ishlab turadigan komissiya kitobni to'g'ri yuritilayotganligini nazorat qilib boradi

Buxgalteriya hisobida tovar–moddiy zaxiralar bo'yicha operatsiyalarning sintetik hisobi tegishli memorial orderlar, tashkilotning Bosh jurnal kitobi (308-son shakl) va moliyaviy hisobot shakllarida boshlang'ich hisob hujjatlari ma'lumotlariga asoslangan holda aks ettiriladi.

Hozirgi kunda davlat tibbiyot tashkilotlarining buxgalteriya hisobi to'liq "UZASBO" dasturiy majmuasida elektron shaklda yuritilayotgani sababli hisob ishlari ancha osonlashdi. Tovar–moddiy zaxiralarning harakatini hujjatlashtirish, ularni nazorat qilish jarayoni sezilarli darajada tezlashdi [7]. Shu bilan birgalikda, davlat tibbiyot tashkilotlarida tovar–moddiy zaxiralar harakatini hujjatlashtirishda amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar talablariga va me'yorlariga qat'iy amal qilishlari lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ta'kidlash joizki, davlat tibbiyot tashkilotlaridagi tovar–moddiy zaxiralar harakatini hujjatlashtirish ishlarini va ularning nazoratini optimallashtirish imkonini beruvchi "Tashkilot bo'yicha hujjatlar aylanishi grafigi" bilan tartibga solinishi zarur. Ushbu grafikda hujjatlarning nomi, hujjatni tuzish, tekshirish, ishlash va arxivga topshirish vaqti hamda mas'ul shaxslar to'liq ko'rsatiladi.

Shuningdek, davlat tibbiyot tashkilotining bo'lim va bo'linmalari kesimida tovar–moddiy zaxiralar bo'yicha hisobotlarni topshirish muddatlari va moddiy javobgar shaxslar aniq belgilanadi. Bu esa tovar–moddiy zaxiralar bo'yicha tezkor ma'lumotlar olish imkonini beradi.

"Tashkilot bo'yicha hujjatlar aylanishi grafigi" davlat tibbiyot tashkilotining hisob siyosatiga ilova sifatida kiritiladi yoki alohida rahbar buyrug'i bilan tasdiqlanishi mumkin. To'g'ri ishlab chiqilgan "Tashkilot bo'yicha hujjatlar aylanishi grafigi" buxgalteriya xizmatining tashkilot bo'lim va bo'linmalari bilan hamkorlikdagi ish sifatini, hisobdor va mas'ul shaxslarning o'z vaqtida hisobot taqdim qilishini hamda ichki nazoratni amalga oshirishni ta'minlaydi. Bu esa davlat tibbiyot tashkilotlarining moliya–xo'jalik faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. "Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to'g'risidagi" Yo'riqnoma (2010-yil 22-dekabr, 2169-son).
2. O'zbekiston Respublikasi budjet hisobining standarti "Tovar-moddiy zaxiralar" (7-son BHS, 2019-yil 14-yanvar, 3120-son).
3. "Buxgalteriya hisobida hujjatlar va hujjat aylanishi to'g'risidagi" Nizom (2004-yil 14-yanvar, 1297-son).
4. Vorobyeva I.P., Spesivtseva A.L., Barysheva G.A. Buxgalterskiy uchët v byudzhетных uchrezhdeniyax: Uchebное posobie. – Tomsk: Izd-vo TPU, 2012. – 252 s.
5. Kachkova O.E., Krishtaleva T.I., Ovsichuk M.F. Buxgalterskiy uchët v byudzhетных uchrezhdeniyax: uchebnik. – Moskva: KNORUS, 2022. – 376 s.
6. Kuliboyev Azamat Shonazarovich (2023) "Davlat tibbiyot tashkilotlarida oziq-ovqat mahsulotlarining me'ori va undan og'ishishlarni hisoblash", Eng yaxshi intellektual tadqiqotlar, 2(1), 147–153. Manba: <http://web-journal.ru/index.php/journal/article/view/321>
7. Kuliboyev A. Davlat tibbiyot tashkilotlarida buxgalteriya hisobining uslubiy asoslari // Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari. – 2023. – T.3. – №8.
8. Kuliboyev A.Sh. Budjet nazoratining nazariy–uslubiy asoslari // World Scientific Research Journal. – 2023. – T.16. – №1. – B. 31–37.
9. Shonazarovich K.A. Regulatory and legal regulation of accounting in budgetary institutions // EPRA Int. Journal of Economics, Business and Management Studies (EBMS). – 2023. – T.10. – №6. – B. 82–86.
10. Ostonqulov M. Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: "Iqtisod–moliya", 2009. – 428 b.
11. Tuychiyev A.J., Ostonqulov A.A., Ibragimov K.Sh., Tursunov A.S. Budjet tashkilotlarida budjet hisobi. Darslik. – Toshkent: "Iqtisod–moliya", 2019. – 329 b.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>